



ANALYSIS OF BIOETHICAL ISSUES IN CHRISTIANITY AND ISLAMIC SOURCES

Dr. Alidjanova Lazizaxon Abbasovna

Ph.D., Senior lecturer, International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract: The global processes taking place in the world require a harmonious approach to the issue of a person's mental and physical health. In modern medical practice, solutions to existing problems can be found through medical and spiritual treatments based on religious teachings. The teachings of Christianity and Islam, which are considered world religions, have developed guidelines for regulating not only the spiritual but also the medical health of a person and have been implementing them for many millennia of history. In the context of the 2019 global pandemic related to COVID-19, the popularization of mental and psychological treatment processes along with medical treatment has increased the importance of religious medicine. In this regard, studying their religious and social foundations regarding human health issues is of urgent importance.

Key words: christianity, islam, medicine, middle ages, religious teachings, health of a person

Globallashuv sharoitida dunyoda turli madaniyat, an'ana va urf-odatlar qatorida dinga qiziqish tobora ortib bormoqda. Din insonni ezgulikka, insonparvarlik va boshqalar haqida ham o'ylashga o'rgatadigan ta'limotdir. O'z navbatida har bir dinda insonning axloqiy kamolotiga katta e'tibor berilgan. Ayniqsa, axloqiy madaniyatning asoslaridan biri – emosional-ruhiy poklanishning tamoyillari jahon dinlari manbalarida yoritilgan. Muhimi, COVID-19 pandemiyasining Yer yuziga tarqalishi, shu bilan birga yangi xatarlarning paydo bo'layotgani insoniyat salomatligini mustahkamlash va ma'naviyatini yuksaltirishda diniy omildan samaraliroq foydalanish zaruratini tug'dirmoqda.

Dunyoning ilmiy markazlarida din va tibbiyot munosabati sohalaridagi manbalarni chuqur o'rganish va ularning asl mohiyatini ochishga e'tibor qaratilmoqda. Bu turdagi tadqiqotlar din va tibbiyotning professional va fanlararo hamkorligi bilan aloqador tendensiyalar bo'yicha g'oyalarni ilgari surmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arb va Sharqda tibbiyotning diniy asosi, uning vujudga kelishida diniy qarashlarning ahamiyati, muqaddas matnlardagi inson jismoniy salomatligi yuzasidan ko'rsatmalarning zamonaviy tibbiyotda isbotlanishi, bu boradagi ixtirolarning Bibliya kitoblari, Qur'on oyatlari va hadislarida aks etganligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Shu nuqtai nazardan dinlarda tibbiy masalalarning e'tiqodiy-ijtimoiy asoslarining o'ziga xos jihatlarini ochib berish shu sohadagi tadqiqotlar ilmiy doirasining kengayishiga xizmat qiladi.



Xristianlik va islom dini manbalaridagi tibbiy masalalar asoslarini o'rganish dinlarning yuzaga kelishi va jamiyatda tarqalish davridan boshlangan. XVIII asrga kelib, diniy va dunyoviy fanlarning ajratilishi natijasida tibbiyot diniy qarashlardan xoli tarzda mustaqil rivojlana boshladi. XX asr o'rtalariga kelib cherkov va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tibbiy-ijtimoiy, tashkiliy va axloqiy muammolarini har tomonlama tekshirishga bag'ishlangan ishlar amalga oshirila boshladi.

Insoniyat tarixi davomida din rivoji va tibbiyot masalasi o'zaro uyg'unlikda yuksalish bosqichini bosib o'tgan. Ayniqsa, uning din bilan asoslanishi yoki diniy ta'limotlarga zid bo'lishi muhokama markazida bo'lgan. Antik davr olimlari tomonidan yozilgan tibbiyotga oid asarlarda diniy motiv uchramasada, diniy adabiyotlarda tibbiyot masalasi doimo izohlangan. Keyinchalik, jamiyatda dinning o'rni kuchayishi bilan tibbiyot bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'z qarashlarini din bilan isbotlashga harakat qildilar. Ayni damda din rohiblarining o'zi ham bir vaqtning o'zida tabib sifatida faoliyat olib bordilar. Xristianlikda bunga Iso (a.s.)ga berilgan mo'jiza va uning odamlarni davolashi, ko'rlarning ko'zlarini sog'aytirishi, moxovlarning terilarini tozalashi, shollarni silab oyoqqa turg'azishini dalil qilib oladilar. Iso (a.s.)ning yer yuzidan ko'tarilishidan keyin ushbu vazifani xavoriylar, ulardan keyin avliyolar o'z zimmlariga oldilar. Zero, xristianlik e'tiqodiga ko'ra, kasallik gunoh oqibatida yuzaga kelib, uning shifosi tavba va ruhiy poklanish bilan bo'ladi. Bizningcha, bu masala diniy ta'limotlar, manba va asrlarda tibbiyot sohasini o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Azaldan inson salomatligini saqlash, kasallikning oldini olish va shifo topishga e'tiqodiy masala sifatida qaralgan. Salomatlik, shifo topish, xastalik va bemorga nisbatan munosabat diniy birlamchi manbalarda aks etgan. Keyinchalik ushbu manbalarga sharhlar yozilishi, shifokorlik va tabiblik sohasining kengayishi natijasida turli adabiyotlar ko'payib borgan. Biroq, ushbu mavzuni o'rganilish sohasi esa torayib borgan.

Insoniyat tarixi davomida tibbiyot masalasi doimo birlamchi soha hisoblanib, uning din bilan asoslanishi yoki diniy ta'limotlarga zid bo'lishi muhokama markazida bo'lgan. Shu sababli antik davr olimlaridan boshlab bugunga qadar mutafakkirlar, tibbiyot olimlari tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqotlarda din va tabobat masalasi alohida o'rganilgan. Keyinchalik, jamiyatda dinning o'rni kuchayishi bilan faqat tibbiyot bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'z qarashlarini din bilan isbotlashga harakat qilganlar. Buning natijasida, din va tibbiyotni uzviy o'rganuvchi tadqiqotlarda bir qancha yondashuvlar yuzaga kelgan. Jumladan, o'rta asr tibbiyotga doir manbalarning aksariyatida diniy motiv ustunlik qilganini kuzatish mumkin.

Ushbu mavzuning ilmiy yangiligi shundaki, xristianlik va islom manbalaridagi shifo, bioetika, turli kasalliklarga qarshi kurashish, nogironlar, tabib va bemor o'zaro aloqalarida ma'naviy-ruhiy tayanch vazifasini o'tagan e'tiqodiy-ijtimoiy masalalar alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq qilinadi.

Ibtidoiy e'tiqodlardan rivojlangan yakkaxudolik dinlarigacha bo'lgan davrda inson hayoti va o'limi, sog'lig'i va kasalligi, imoni va shifo topishi, tana va ruhning muvozanati kabi masalalarni o'z dunyoqarashi markaziga qo'ygan.

Xristianlik diniy ta'limotini falsafiy, xususan, dinshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish ushbu jahon dinining inson salomatligi, kasallik sabablari va uni davolashga munosabati bir necha bor o'zgarib turish jarayonlari yoritilishiga olib keladi.



Ma'lumki, islom ta'limoti yuzaga kelgan davrda jamiyatda o'ziga xos xalq tabobati mavjud bo'lib, tibbiyotga doir asarlar yozilgan. Xalq tabobatining manbaviy asosi sifatida qalb va jismni davolovchi Qur'on oyatlari va hadislar hisoblangan. Musulmon tabiblar shariat va ilmga asoslangan holda asarlar yozishi natijasida yangi Tibbun nabaviy janri vujudga kelgan.

Insoniyat tarixi davomida tibbiyot masalasi doimo birlamchi soha hisoblanib, uning din bilan asoslanishi yoki diniy ta'limotlarga zid bo'lishi muhokama markazida bo'lgan. Shu sababli antik davr olimlaridan boshlab bugungi kunga qadar mutafakkirlar, tibbiyot olimlari tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqotlarda din va tabobat masalasi alohida o'rganilgan. Keyinchalik, jamiyatda dinning o'zni kuchayishi bilan faqat tibbiyot bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'z qarashlarini din bilan isbotlashga harakat qilganlar. Buning natijasida, din va tibbiyotni uzviy o'rganuvchi tadqiqotlarda bir qancha yondashuvlar yuzaga keldi. Jumladan, o'rta asr tibbga doir manbalarning barida jamiyatda dinning roli ustunlik qilganligi sababli diniy motiv ustunlik qilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarni yondashuviga ko'ra tarixiy, tibbiy, falsafiy, diniy-sub'ektiv va dinshunoslik-obyektiv yondashuvlarni kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи А.Мансуров. – Т.: ТИУ нашриёт-матба бирлашмаси, 2018. – 624 б.
2. Саҳиҳи Бухорий: Алжомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам) 3-китоб//, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти, 2020. – 939 б.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Васатия – ҳаёт йўли. –Т.: Hilol nashr, 2016. – 310 б.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. 3-жуз. Т.: Hilol nashr, 2021. – 462 б.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Хилол. 6 та жуз. Т.: Hilol nashr, 2007-2022.
6. С.Арзикулов. Расулulloҳ алайҳиссалом табобати. – Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019.